

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA XOTIN-QIZLAR UCHUN YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR

Suyunov Dilmurod Xolmurodovich

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi iqtisod fanlari doktori professori

Raupova Maxbuba Maxamadaliyeva

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, yaratilayotgan imkoniyatlar va qulay shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Xotin-qizlarning tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni iqtisodiy faollikka undash, shuningdek, davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Xotin-qizlar, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, imtiyozlar, davlat qo'llab-quvvati, iqtisodiy faollik.

Abstract: This article analyzes the reforms and opportunities being implemented in the Republic of Uzbekistan to actively involve women in small business and private entrepreneurship. It provides information on the mechanisms of state support, incentives, and favorable conditions created to enhance women's entrepreneurial potential and encourage their economic activity.

Keywords: Women, small business, private entrepreneurship, incentives, state support, economic activity.

So'nggi yillarda O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash va xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarida xotin-qizlarga qulay muhit yaratish maqsadida qator huquqiy, moliyaviy va infratuzilmaviy islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada mazkur imkoniyatlar tahlil qilinadi.

Ma'lumki, bizning jamiyatimiz yillar davomida an'anaviy qadriyatlar asosida shakllangan bo'lib, oilada, jamiyatda erkaklarning o'rnini va vazifasi ulug'langan va ustuvor deb qarab kelingan. Lekin XX asr oxiri va XXI asrning boshlaridagi shiddatli o'zgarishlar, turli ijtimoiy jarayonlar an'anaviy turmush

tarziga sezilarli o'zgarishlarni olib keldi. Ayollarning o'ziga xosligi biznesning ba'zi sohalarida ustuvorligi natijasida, ko'p hollarda, ular erkaklarga nisbatan muvaffaqiyatli biznes olib borishni boshladilar. Natijada, oilada, biznesda, jamoat ishlarida ayollarning yetakchiligi ham odatiy hol bo'la boshladi. Lekin shunga qaramasdan jinsiy vazifalar haqidagi tassavvurlarning, ya'ni pul topish ayollarning ishi emas, degan xurofiy qarashlarning ta'siri hali ham kuchli.

Yuqorida qayd etilganidek, qaysi davlatda bo'lishidan qat'iy nazar, erkaklar ayollarga nisbatan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish ehtimoli ko'proq. Tadbirkorlik fe'l-atvorini dunyo bo'ylab kuzatish aniq bir narsani ko'rishga imkon beradi: gender tafovuti biznesni ochayotganda va biznes faoliyatida namoyon bo'lmoqda. Ayollarning tadbirkorlikka moyilligi erkaklarniki kabi kuchli. Shunga qaramasdan, muvaffaqiyatsizlikdan cho'chish ayollarda erkaklarga qaraganda kattaroq ahamiyat kasb etadi. Buning sababi – ayollarning yuqori ehtiyojmandligi bo'lishi mumkin. Ayollar tadbirkorlik sohasiga odatda 25-44 yoshlarda kirib boradi. Ayollar ish bilan band bo'lsa, ularning kelajakda tadbirkor bo'lish ehtimoli ko'proq, chunki ish bilan band bo'lish ayollar uchun resurslarga, ijtimoiy munosabatga va g'oyalarga yo'l ochadi. Bular esa ayollarga o'zlarining tadbirkorlik faoliyatlarini yo'lga qo'yishida yordam berishi mumkin. Ta'lim ham ayollarning tadbirkorlik faoliyatiga olib keluvchi muhim sabab bo'lishi mumkin.

Hozirgi zamonda biznes qilish uchun xohish, imkoniyat va moddiy resurslarni mavjudligi kifoya qilmaydi. Chunki kichik biznes rivojlanishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, uni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora tadbirlar natijasida mamlakatimizdagi har bir inson bu manbalardan bema'lol foydalanishi va o'z biznesini ochib yuritishi mumkin. Bu albatta ijobiy hol, lekin masalaning boshqa tomoni ham bor, bunda biznes bilan har kim ham shug'ullanishni istab bozorga kirib kelishi mumkin va natijada bozordagi raqobat kurashi keskinlashuvi tabiiy holdir.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, ularning iqtisodiy faolligini oshirish va tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, amaliyotga joriy etilgan davlat dasturlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ayollarni faol iqtisodiy qatlam sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda. Maqsadli davlat dasturlari va tashabbuslar "Ayollar daftari" tizimi Bu tizim orqali ijtimoiy jihatdan zaif qatlamga mansub xotin-qizlar aniqlanib, ularning muammolari tizimli tarzda

hal etiladi. Ayniqsa, ishsiz ayollarga mikro kreditlar ajratish, kasb-hunar o'rgatish va ularni tadbirkorlikka jalb qilish kabi amaliy yordam ko'rsatiladi. "Tadbirkor ayol" loyihasi Ushbu loyiha doirasida xotin-qizlarga Biznes g'oyalarini ishlab chiqishda maslahatlar beriladi, Biznes reja tuzish bo'yicha seminar va treninglar tashkil etiladi, Kasb-hunar o'rgatish markazlari orqali amaliy malaka oshirish imkoni yaratiladi, Ish boshlash uchun moliyaviy resurslar (mikro kredit, grant) taqdim etiladi. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash va grantlar Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg'armasi Bu jamg'arma orqali biznes boshlamochi bo'lgan yoki mavjud faoliyatini kengaytirmochi bo'lgan xotin-qizlarga Imtiyozli kreditlar, Davlat subsidiyalari, Grantlar, Soliq va bojxona to'lovlarida yengilliklar berilmoqda. Shuningdek, ayollar biznesini qo'llab-quvvatlash maqsadida banklar tomonidan maxsus kredit mahsulotlari ishlab chiqilmoqda. Har yili tashkil etilayotgan biznes forumlar, ayol tadbirkorlar ko'rgazmalari ayollarning o'z mahsulotlarini namoyish qilish, yangi hamkorlar topish va bozorlarga chiqish imkoniyatini oshirmoqda. Turli NNT va xalqaro tashkilotlar ham ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar orqali qo'llab-quvvatlashni amalga oshirmoqda. Ta'lim va malaka oshirish Tadbirkorlik sohasiga kirishish uchun ayollarga Oliy o'quv yurtlari, texnikumlar, kasb-hunar markazlarida o'qish imkoniga ega boldi. Turli onlayn platformalar orqali biznes boshlash, moliyani boshqarish, raqamli marketing kabi fanlardan bilim olish imkoniyatiga ega boldi. Maxsus "master-klasslar" va "biznes maktab"lar orqali amaliyotda tajriba to'plash imkoniga ega boldi. Ayollar tomonidan tashkil etilgan muvaffaqiyatli bizneslar tashqil etildi. Bugungi kunda ayollar Kichik biznesni rivojlantirishda quyidagi sohalarda faoliyat yuritib kelmoqda. Qishloq xo'jaligi (parrandachilik, asalarichilik, issiqxonachilik), Hunarmandchilik va xalq amaliy san'ati, Keng iste'mol mollari ishlab chiqarish, Byuti-industriya, Onlayn savdo va raqamli xizmatlar. Ayollar tomonidan boshlangan loyihalar nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki yangi ish o'rinlari yaratilishiga ham hissa qo'shmoqda.

Xulosa: O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi ishtiroki tobora faollashib bormoqda. Davlat tomonidan ko‘rilayotgan tizimli chora-tadbirlar, xususan "Ayollar daftari", "Tadbirkor ayol" loyihasi, imtiyozli kreditlar, grantlar, ta‘lim va malaka oshirish kurslari — barchasi xotin-qizlar uchun samarali imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Ayollar tadbirkorligini rag‘batlantirish nafaqat ularning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlaydi, balki mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Shu bois, xotin-qizlar tadbirkorligini yanada rivojlantirish, ularning bilim va ko‘nikmalarini muntazam ravishda oshirib borish, bozor talablariga mos ravishda yangi mahsulot va xizmatlar yaratishda ko‘maklashish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Kelgusida bu yo‘nalishdagi ishlar yanada takomillashib, ayollarning iqtisodiy faollikdagi o‘rni yanada mustahkamlanishi shubhasiz.

REFERENCES

1. Suyunov D. X. Kichik va o‘rta biznesda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari: loyihaviy yondoshuvlar va samaradorlikni baholash //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – S. 79-83.
2. Suyunov D. X. Scientific and theoretical approach to the implementation of digital transformation of corporate governance in joint-stock companies// Actual problems of business development and entrepreneurship in the digital economy, international scientific and practical conference. 2022.12.23
3. Suyunov D. X. Kichik va o‘rta biznesda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari: loyihaviy yondoshuvlar va samaradorlikni baholash //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – S. 79.
4. D.D. Suvanova. Digitalize enterprise business processes methodological approach. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. Volume 1, Issue 9, December, 2023 ISSN (E): 2938-3811.
5. D.D. Suvanova The digitalization of business processes itself scientific approaches to the characteristics. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. Volume: 19 December 2023.

6. D.D. Suvanova. Aksiadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. Elektron nashr.. 2024-yil avgust. № 8-son. 277- sahifa.
7. Suyunova D.D. Rakamli korporativ boshkaruvni joriy etishning ilg'or xorij rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ijobiy tomonlarini joriy qilish. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2552/2376>. 2025, fevral.
8. Suyunova D.D. Rakamli iqtisodiyot tizimi iqtisodiyotni rivojlanishining elektron mexanizmi. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2559/2375>. 2025, fevral.
9. Suyunova D.D. Factors affecting the digitalization of corporate management in joint joint stock companies and scientific approaches to risk assessment. "Ekonomika i sotsium" №11 (126). https://www.iupr.ru/files/ugd/b06fdc_5772198b03034ea1b82d7241321.acec8.pdf,index.true. 2024, noyabr.
10. Suyunova D.D. Korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasiga ilmiy qarashlar. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 7-son, UO'K: 35.073.6. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss.7-pp.393-402>. 2024, iyul.
11. Suyunova D.D. Corporate in joint stock companies ways to use digital technologies to improve management. European journal of research development and sustainability (EJRDS). Vol. 4 no 09, issn: 2660-5570. <https://scholarzest.com/index.php/ejrd/article/view/3825/3055>. 2023, sentyabr.
12. D.X.Suyunov O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlash mexanizmlari. Science and innovation 2 (Special Issue 13), 486-488. 2023.